

---

## Navbatdagi sayyor qabulda fuqarolar uchun tibbiy ko'rik va mehnat yarmarkasi ham tashkillandi

Bugun Farg'ona shahar hokimi, 1-sektor rahbari Vosiljon Nazarov tomonidan "Bobur" mahallasida jismoniy va yuridik shaxslar uchun sayyor qabul o'tkazildi. Qabul davomida yuz nafarga yaqin fuqarolardan tushgan murojaatlar mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. 50 ga yaqin jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari ijobiy hal qilindi.

Kelib tushgan murojaatlar bo'yicha belgilangan tartibda o'rganib chiqish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi.

Noana'naviy tarzda o'tkazilgan qabulda fuqarolar uchun tibbiy ko'rik va mehnat yarmarkasi ham tashkillandi. Murojaatchilar ham aholi vakillari tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Mehnat yarmarkasi orqali esa besh nafar ishsiz fuqarolarning bandligi ta'minlandi.

2022-06-13 09:36:48